

AHMAD TABIBIYNING “VOMIQ VA AZRO” DOSTONIDA OBRAZLAR TIZIMI VA ULARNING BADIY TALQINI

Kubayeva Marjona O'ktam qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti Markaziy Osiyo

xalqlari tillari va madaniyati instituti

4-bosqich 401-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostonida obrazlar tizimi bayon etiladi. Doston tarkibidagi obrazlarning boshqa dostonlar bilan o'xshash tomonlari tavsif qilinadi. Asarda ularning qaysi o'rindan boshlab ishtirok etishi, qaysi o'rinda mavjud emasligi batafsil yoritiladi. Har bir obrazning o'ziga xos sifatlari keltirilib, badiiy tasvir vositalaridan foydalanilganligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: obraz, badiiy tasvir vositalari, Vomiq, Azro, Osafi soniy, Naimiy, Shakardo'xt, Nigorin, Fag'fur.

Аннотация: В данной статье описывается система образов в эпической поэме Ахмада Табиби “Вамик и Азро”. Приводятся сходства образов в эпосе с другими эпосами. Подробно объясняется место их появления в произведении и места их отсутствия. Представлены специфические качества каждого образа и показаны средства художественного изображения.

Ключевые слова: образ, средства художественного изображения, Вамик, Азро, Асафи Соний, Наими, Шакардохт, Нигорин, Фагфур.

Abstrakt: This article describes the system of images in Ahmad Tabibi's epic poem “Vamiq and Azro”. The similarities of the images in the epic with other epics are described. The place from which they appear in the work and where they are absent are explained in detail. The specific qualities of each image are presented and the means of artistic depiction are shown.

Keywords: image, means of artistic representation, Vamiq, Azro, Asafi Soniy, Naimiy, Shakardokht, Nigori, Fag‘fur.

Ahmad Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostonida obrazlar tizimi Sharq mumtoz adabiyoti an‘analari asosida shakllangan bo‘lsa-da, muallifning individual badiiy qarashlari bilan boyitilgan. Asarda har bir obraz voqealar rivojini ta‘minlash bilan birga, muayyan g‘oyaviy-estetik vazifani ham bajaradi. Doston obrazlari ishq, sadoqat, sabr, vafo, hijron, komillik kabi tasavvufiy hamda ma‘naviy tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Tabiiy obraz yaratishda badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Tashbeh, istiora, mubolag‘a, tazod kabi san‘atlar qahramonlar xarakterini yanada jonli va ta‘sirchan ochishga yordam beradi. Ayniqsa, oshiq va ma‘shuqa ruhiy holatini tabiat manzaralari bilan uyg‘un holda tasvirlash shoir uslubining o‘ziga xos jihatlaridan biridir. Bu esa obrazlarning hissiy-estetik ta‘sir kuchini oshiradi.

Shuningdek, dostonida obrazlar tizimi an‘anaviy ishqiy dostonlarga xos qolip asosida qurilgan bo‘lsa-da, Tabiiy ularni individual ruh bilan boyitadi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalariga keng o‘rin berilishi, ichki monologlarning qo‘llanishi hamda tasvirlarning lirizm bilan sug‘orilgani muallif mahoratini ko‘rsatadi. Shu jihatdan doston obrazlari nafaqat an‘anaviy idealini ifodalovchi badiiy vositalar sifatida ham ahamiyatlidir.

Vomiq – dostonning bosh qahramoni hisoblanadi, uning faoliyati va sarguzashtlari dostonida tasvirlangan voqealarning asosini tashkil qiladi. U Sabo shahrining shohi Nosir farzandi hisoblanadi. Onasi – Nigori. Asarning boshlanishi aynan Vomiqning tug‘ilishi bilan boshlanadi. Bu shunday go‘zal ta‘rif qilinadi:

Ki ondin bir o‘g‘ul bo‘ldi banogoh,
Kelib ruxsori husn avji uza moh.
Agar ko‘rsa jamoli oftobin,
Qilib mehr ila mah nur iktisobin.
Ajab ra‘no pisarkim, yo‘q misoli,
Bo‘lub tobon quyosh yanglig‘ jamoli.
Tulu’ etmay aningdek sa’d axtar,

Uzoridin hijil xurshidi anvar.

(Undan bir o'g'il fazrand dunyoga keldi. Uning yuzi go'zallik cho'qqisidagi oydek porlab turardi, oy uning jamolini ko'rsa, mehr bilan undan nur olgandek bo'lardi. U nihoyatda go'zal, tengi yo'q bir bola edi, uning yuzi quyoshdek charaqlab turardi. Bunday baxtli yulduz hali porlamagan edi, hatto yorug' quyosh ham uning yuzidan uyalgandek edi).

Vomiq yoshligidan ilm-fanni yaxshi o'zlashtiradi. U himmatli, marhamatli, mas'uliyatli va shafqatli kishi. Otasidan keyin davlatni odillik bilan boshqaradi. Qaroqchilar bilan duch kelganda uzrini qabul qilmagani uchun ularni hammasini halok qilish darajasiga boradi. U shohona liboslarda yurishni emas, darveshona oddiy kiyimlarda yurishni afzal ko'radi. Bir dehqonning uyida mehmonga borganda shunday kiyimini so'rashi, Sa'd bozargon taklif qilgan shohona kiyimlarni olmasligi buning yorqin misolidir. Farzandli bo'lganidan keyin o'g'liga pand-nasihatlar beradi. Vomiq dostonida mehribon, farzandlari ta'limi uchun harakat qiladigan ota sifatida gavdalangan.

Vomiq sadoqatli oshiqdir. U Azroni samimiy sevadi, hijron azobida o'rtanadi, visoliga doim oshiqadi. Lekin Vomiq aql-zakovatini, odobini hislarining ixtiyoriga topshirib qo'ymaydi, xiyonat yo'lga kirmaydi. Vomiq Azroni suratda ko'rib, uni sevib qolgan edi. Izlab yo'lga chiqqanida tushiga kiradi, aslida Azro uni yoqtirib suratini chizdirib yuborganini va makoni qaysi tomondaligini aytadi. Shu bilan ular to'y marosimida bir-birini ko'radi. Oxiri murod-maqsadiga yetadilar.

Biroq Vomiq dostonida taqdirning ixtiyoriga o'zini tashlab qo'ygan sifatida ham ko'rinadi. Buni ovga chiqqanida ohu ketidan quvib, lashkarlaridan uzoqlashib ketganda ko'ramiz. Shu payt shohlikni ishqdan ustun qo'yib, yori tomon ravona bo'ladi.

Banogah bir kuni sultoni Vomiq,
Yonida Osafi soniyu sodiq
Xazoyin ichra qildilar tamosho,
Ko'rundi ko'zga bir sanduq, ammo
Ki zanjir ila osilmish muazzam,
Dog'i qulf ila bo'lmish og'zi mahkam.

Dostonning mana shu joyi Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga o‘xshab ketadi. Sababi unda ham Farhod xazinaxonani ko‘rayotganda bir sandiqqa ko‘zi tushadi. Ichida nima borligiga qiziqadi. Vomiq ham xuddi shunday qiladi. Farhod sehrli ko‘zgu topgandi, Vomiq esa Azro surati.

Yana shunday o‘xshash sujetlardan biri bu Vomiqning saboga murojaati. Bilamizki, Farhod ham saboga murojaat qiladi. Ikkalasida ham saboning “vazifasi” yorni topib, yoniga borib, uning ahvolini bilish, va oshiqning holatini yetkazish hisoblanadi.

Zamiri g‘arq o‘lub fayzi safog‘a,
Dedi diqqat bila bodi sabog‘a:
“Alo, yo, ey nasimi subhi ravshan,
Shamimim atrbaxshi fayzi gulshan.

Azro – latofatli, go‘zal yor timsoli. Jabilso shahrining shohi Shahbolning qizi hisoblanadi. Onasi – Ruhafzo. U hatto Vomiqdan avval - maktablik chog‘idan sevib qoladi va suratini yuboradi. Vomiq qanday ma’shuqasi iztirobida qiynalsa, Azro ham balki undan ortiq hijron azobida ancha qiynaladi. Vomiqning tushida Azroning oyog‘i zanjirlanganidan ishq uni shu holga solganini anglaymiz. Amakivachchasi Havro unga Vomiq haqida xabar olib kelganida ham avval hech narsani eshitgisi kelmaydi, lekin ismini eshitishi bilan o‘ziga kelib, juda xursand bo‘ladi. Azro doston boshidan qatnashmaydi, faqat suratdagi rasmi va Vomiqning tushidagi tasvir bilan tanib boramiz. Havro noma keltirgan vaqt asarda o‘zi ishtirok etadi.

Azro – sadoqatli yor. U eng yomon damlarda ham Vomiqqa vafodor bo‘lib qoladi, irodasi bo‘shashmaydi. Dostonning bir necha joyida Azro ta’rifi keltiriladi. To‘y kuni Vomiq yorni ko‘rganda shunday ta’rif qilinadi:

Ko‘rarkim mahliqoyi nozanindur,
Ado durjida pur durri samindur.
Nigore ishva g‘anju pur dalole,
Dilorome, buti navras nihole.
Jamol avjida bir raxshanda mohid,
Demay nohidkim tobanda xurshid.

Furug‘i tal’ati o‘rtar ko‘ngulni,
Jamoli vola aylar aqlu kulni.
Erur nazzorai ruxsori jonbaxsh,
Masih oso kalomidur ravonbaxsh.

(U ko‘rganda nozik va latofatli bir go‘zal ekanligi ayon bo‘ladi. Uning har bir harakati go‘yo qimmatbaho marvaridlar bilan to‘la sandiqdek bebaho va nafisdir. U ishva va nozga boy, dilni rom etuvchi, endigina yetilib kelayotgan niholdek latif bir go‘zaldir. Uning jamoli go‘zallik cho‘qqisida porlagan oydek, hatto uni oy demay, balki nur sochuvchi quyoshga qiyoslash joiz. Uning yuzidan taralgan nur ko‘ngillarni kuydiradi, go‘zalligi esa aqli ham hayratga solidi. Uning yuziga qaragan kishiga jon bag‘ishlangandek bo‘ladi, so‘zlari esa Iso payg‘ambar so‘zidek ruhni tiriltiruvchi ta’sirga ega).

Osafi soniy – Vomiq bilan birga katta bo‘lgan, birga ta’lim olgan qahramon. Asarda shunday keltiriladi:

Ki Ravshanroyning bir o‘g‘li bo‘ldi,
Jamoli partavi olamg‘a to‘ldi.
Aningdek keldi marg‘ub husni oni,
Ki ul go‘yoki Vomiq erdi soniy.
Vazir ondin bo‘lub xushholu xurram,
Yeturdi mujda ondin shah sori ham.
Bo‘lub shah dog‘i ondin shod holot,
Anga deb Osafi soniy qo‘yub ot.

Osafi soniy sadoqatli vazir, chin do‘st, haqiqiy oshiq timsolida namoyon bo‘ladi, u Vomiq taxtga o‘tirganda unga vazir bo‘ladi. Vomiq o‘z lashkarlaridan uzoqlashib ketib qolganida, iztirob chekadi. Fursat bo‘lganda uning ortidan ketishni xayol qilib yurardi. Vomiqdan keyin taxtga o‘tirishni afzal ko‘rmaydi. Osaf tushida bir mahliqoni ko‘rib, ishq o‘tida yonishni boshlaydi. Shundan keyin u ham yo‘lga chiqadi. Shakardo‘xtni yoqtirib, oxiri murod-maqсадlariga yetadilar.

Naimiy – taqdiri xuddi Vomiqning hayoti singari bir xil bo‘lgan qahramon. Qalandarona kiyinib, yorini izlashga tushgan oshiq timsoli. Tojkan shohi Noimning o‘g‘li bo‘lib, otasi vafotidan keyin taxtga o‘tirgan. U Havro bilan baxtli hayot kechiradi.

Nigorin – Vomiqning onasi. Farzandi uchun jonkuyar ona. O‘g‘lidan darak bo‘lavermagandan g‘amga tushadi. Muabbad bashoratini eshitgandan keyin ko‘ngli yorishadi. Osaf taxtni xohlamagani uchun o‘zi shoh bo‘ladi. Yurtni adolatli boshqaradi. Nigorin nafaqat farzandi, balki nevaralarini ham o‘ylaydigan ayol bo‘lib gavdalangan. Shahbol vafot etgani sababli o‘rniga Vomiq Jabilso shohi bo‘lishga ketganda u nevarasi – Nosiri soniy yonida qolib, uni duo qilib o‘tiradi.

Shakardo‘xt – Chin shohi Fag‘urning yakka-yu yagona qizi. Shakardo‘xt Chin shahri voqealari boshlanishidan dostonida ishtirok etadi. U Vomiq va Osafi soniyni o‘z majlisiga chaqiradi, ikkalasiga ham ko‘ngli tushadi-yu, qaysi biri yori bo‘lishini o‘ylaydi. Vomiq Azro ishqida yurganini payqab, Osafga qattiq bog‘lanadi. Va bular ham so‘ngida visol baxtiga erishadilar. Asarda shunday ta’riflanadi:

Shakardo‘xt erdi lekin oning oti,
Jamol ila edi oliy sifoti.
Sabohat ichra erdi mehr siymo,
Qadi ul nav’kim sarvi diloru.
Yuzi sharmandasi xurshidi tobon,
Qadining bandasi shamshodi bo‘ston.
Sochi oshuftasi bog‘ ichra sunbul,
Kelib nargis ko‘zi mabhut bilkul.
Erur chun zulfining har tori bir qayd,
Bo‘lub har qaydig‘a yuz ming kishi sayd.

Fag‘fur – Chin shohi. Naimiy Vomiqqa so‘zlaganda yomon obrazdek ko‘rinadi. Sababi u o‘ziga to‘rt yuz shaharni tobe qilgan, har biridan boj undirib turgan. Naimiy taxtga o‘tirgach esa bir yil davomida to‘lamaydi. Fag‘furdan kelgan nomaga ustiga yurish bilan javob qaytaradi. Dostonida mana shu sujet Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning Doroga boj to‘lamaslik tomoni o‘xshab ketadi.

Xilofat taxti uzra qildilar shoh,
Bu holat birla bir yil o'tdi, nogoh.
Kishi Fag'furdin qoshimg'a keldi,
Talab mendin bu yil bojini qildi.

Voqealar rivojida Fag'furning salbiy jihatlarini ko'rmaymiz. Bu Vomiq bilan bo'lgan munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mehinbonu – Shakardo'xtning ammasi bo'lib, unga onasi va dadasidan ko'p nasihatlar beradi. Ular bilmaganini Mehinbonu biladi. Fag'fur Osafi soniyga qizini bermoqchi bo'lganida Mehinbonu rozi bo'ladi, ammo Parido'xt rozi bo'lmaydi. Bularning o'rtasida nizo kelib chiqadi. Bu obraz an'anaviy dostonlarda uchraydigan obraz sanaladi.

Shahbol – Jabilso shahrining shohi, Azroning otasi. Doston yakunrog'ida ishtirok etadigan ijobiy obraz. Vomiq Naimiyni ham, Osafni ham to'y qilinishini Shahboldan so'rab ish tutadi. O'zi ham bunga yordam qiladi. Uning vaziri Tayfur bu masalada ko'proq ishtirok etgan. Chunki sovchilikka faqat o'zi boravergan. Shahbol asar so'ngida vafot etadi, o'rniga Vomiqning taxtga o'tirishini vasiyat qiladi.

Sa'd bozargon – juda ham saxiy, muruvvatparvar inson sifatida gavdalangan. U asli sotuvchi hisoblanadi. Avval u bilan Osaf, keyin esa Vomiq duch kelib, kemasiga minib olishadi. Yaxshi tanishib olgandan keyin Sa'd bozargon ularga hurmat-ehtirom ko'rsatib, ustidagi kiyimlarini o'rniga yangi shohona liboslarni beradi. Asar so'ngida Osaf buning yaxshiliklarini Vomiqqa eslatadi va unga mukofotlarini topshiradi.

Dostonga e'tibor qiladigan bo'lsak, hech qanday salbiy obrazlar mavjud emas. Barchasi ezgu niyat ila yashaydigan qahramonlar. Bir-biriga yordam beradi, ko'maklashadi. Vafoli, sadoqatli yor-u do'stlar ko'rsatib berilgan. An'anaviy tanish obrazlar ham mavjud. Jumladan, Osaf vazir obrazi – bu qadimdan mavjud bo'lgan obraz sanaladi. Mehinbonu – yuqorida aytganimizdek, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida uchraydigan obraz hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Vomiq va Uzro" dostonidagi obrazlar tizimi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim o'rin egallaydi. Vomiq va Uzro timsollari orqali chin muhabbat, sadoqat va ma'naviy poklik g'oyalari ilgari surilgan bo'lib,

yordamchi obrazlar esa ushbu g'oyalarni to'ldirishga xizmat qilgan. Tabibiyning obraz yaratishdagi mahorati dostonning estetik qimmatini oshirib, uni o'zbek mumtoz epik merosining muhim namunalaridan biriga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Monografiya. –Toshkent: Bookmany print, 2023. -258 b.
2. Табибий А. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи Ф.Ғанихўжаев. Мухаррир П.Шамсиев. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. 232 б.
3. Тожибоева М. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Маърузалар матни. - Андижон, 2007. -Б. 37-39.
4. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: “Маънавият”, 2004. 296 б.
5. www.ziynet.uz